

O'RTA OSIYODA BIRINCHI RENESANS DAVRI DAHOLARI HAQIDA

Berdiyev U.B.

Termiz davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya: *Maqolada IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda birinchi Uyg'onish davri daholari faoliyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Uyg'onish davri, Beruniy, Ma'mun Akademiyasi, astronomiya, matematika, fizika, ximiya.*

Annotatsiya: *V state analiziruetsya period pervogo Vozrojdeniya v Sredney Azii v IX-XII vekax.*

Klyuchevye slova: *Vozrojdenie, Beruni, Akademiya Mamuna, astronomiya, matematika, fizika, ximiya.*

Abstract: *The article analyzes the period of the first Renaissance in Central Asia in the 9th-12th centuries.*

Key words: *Renaissance, Beruni, Mamun Academy, astronomy, mathematics, physics, chemistry.*

“Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Renesans so‘zining mazmuni ancha keng bo‘lib: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Renessans atamasi o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Fanda "Uyg'onish davri" deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba "uyg'onish" atamasini XVI asrda italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida ishlatadi. "Uyg'onish", "Uyg'onish davri" atamalari antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan "tirilishi", uyg'onishi" ma'nosida ishlatila boshlandi ammo keyinchalik fanda bu atama keng ma'noda qo'llanila boshlandi.

Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Metsning 1909 yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan /1/. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to‘g‘risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan keyin IX-XII asrlarda islom mamlakatlari yuksalish yo‘liga kirganligini ta’kidlaydi.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayot oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksaldi, shuning uchun bu davr o'rta Osiyoda birinchi

Renesans davri deb ataladi. Birinchi va ikkinchi Renesans davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz SHeroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzod barakali ijod qilgan. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo'shgan /2-4/.

Barcha sharq va g'arb olimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada XV- XVII asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan. Shu davrda ilm-fan kishilarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirish, turli-tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geodeziyaga qiziqishni kuchaytirdi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o'sha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajdodlarimiz serqirra iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z fanlari bo'yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Abdul Vafo al Buzjoniy o'zining «Geometrik qoidalarning xunarmandlarga kerakli tomonlari xaqida» asarida turli geometrik usullar yordamida xar xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari xaqida xikoya qiladi.

Abbosiy xalifalardan Xorun ar -Rashid (786-809), ayniqsa Al -Ma'mun (813-833) nafaqat ilm fanga hayrixohlik bilan qaradilar, balki uning rivojiga ham homiylik qildilar. Al -Ma'mun hukmronligi davrida ilm-fan sohasiga homiylik yanada kuchaydi. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan "Bayt ul -hikma"ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar tushgan. Shu tariqa xalifalik poytaxti Bag'dodda "Bayt ul -hikma" ("donishlar uyi") -"halifa ma'mun akademiyasi tashkil topdi. Ilm markazida olimlarning aksariyati Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya va Farg'onadan bo'lgan.

Shu tariqa aksariyat O'rta Osiyo zaminidan chiqqan olimlar tomonidan arab tildagi ilm - fan yuzaga keldi. Yevropada katta xatoga yo'l qo'yilib, ularning barchasini "arab olimlari" deb atashgan edi. "Bayt ul - hikma" da yunon fani, hind sanskrit madaniyatini o'rganildi, tibbiyot, astranomiya, matematikaga oid adabiyotlar tarjima qilindi, ularning ba'zilariga sharh yozildi, zamonaviy algebra, geometriya, optika asoslari yaratildi, kimyo fani juda taraqqiy topdi. Akademiya nafaqat tarjima va tahlil ishlari bilan, balki ilmiy asnodagi ekspeditsiyalarni ham uyushtirgan. Shu davrda

nafaqat poytaxt Bag‘dod balki Kat, Marv, Buxoro, Samarqand, Balx va boshqa O‘rta Osiyo hududlaridagi shaharlarda ham ilm - fan keng taraqqiy topa boshlagan.

XI -asr boshida Xorazm poytaxti Gurganj (hozirgi Ko‘hna Urganch) shahridagi ilmiy markaz ham Ma‘mun akademiyasi deb nomlangan.

Xorazmshoh Ma‘mun II davrida "Dor-ul hikma"ning shuhrati yanada oshdi. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma‘mun akademiyasidir. 1004 yilda Ali ibn Ma‘mun farmoni bilan Sharqning yirik ilm-ma‘rifat markazi - "Dor-ul hikma va ma‘rif" yoki Ma‘mun akademiyasi tashkil etildi. Beruniy shu ilm maskaniga rais etib tayinlandi. Sferik trigonometriya, o‘nli raqamlarning tizimli qo‘llanishi, trigonometriyada “funksiya” tushunchasining paydo bo‘lishi, jo‘g‘rofiy koordinatlarining aniq ifodalanishi, Yer sayyorasining sferik globusi, qattiq va suyuq moddalarning solishtirma og‘irligi, minerallar tasnifi, quruqlik tarkibiy jismlarining harakati va qatlamlar hosil bo‘lishi, dengiz va materiklarning joylashuvi, ma‘danlar tahlili – bular yurtimizda IX-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimizning tabiiy va aniq fanlarda amalga oshirgan innovatsion g‘oyalarining natijasidir.

Xorazm Ma‘mun akademiyasida Abu Rayhon Beruniy boshchiligida xorazmlik olimlardan matematik va astronom Abu Nasr Iroq, al-Xorijiy, al-Xamdokiy, kimyogar olim Abul Hokim Muhammad ibn Abdumalik as Solih al-Xorazmiy al-Kosiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suhayly al-Xorazmiy va boshqalar bilan bir qatorda, buxorolik qomusiy olim, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim, faylasuf va shoir bag‘dodlik Abul Xayir ibn Xammor, tabib va faylasuf Abu Sahl Iso ibn Yaxyo al-Masihiy al-Jurjoniy, matematik va astronom Mahmud ibn Xidr al-Ho‘jandiy, tarixchi olim va shoir Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as Saolobiy, Abul Xayr al-Hasan ibn Sivar ibn Boba ibn Bixnam, Abu Sayd Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, al-Xamadoniy, Abu Abdulloh Biyon Naysoburiy, Ahmad ibn Hamid as-Naysoburiy, tarixchi olim ibn Mixxavayx, Abul Fazl Bayhakiy, tabiatshunos olim Abu Abdulloh Husayn ibn Ibrohim at-Tabariy an-Notiliy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy va boshqa yetuk olimlar ko‘plab ilmiy va amaliy muammolarni yechib, jahon fani rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar Olimlar dunyoviy va tabiiy fanlar bilan, xususan astronomiya, matematika, fizika, kimyo, minerologiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar qildilar /5-6/. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarini mukammal bilganlar. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolemey, Yevklid, Pifagor va Galen asarlarini chuqur tahlil qilib, ularga bag‘ishlab sharhlar bitganlar.

Shunday qilib birinchi Renessans davrida O‘rta Osiyoda madaniyat, ilm-fan, astronomiya, matematika, fizika, kimyo, minerologiya, kartografiya, geografiya,

geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi gurkurab rivojlandi.

Adabiyotlar:

1. Мец А. Мусульманский Ренессанс. –М.: Наука, Восточная литература, 1973. 473 с.
2. Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. Пер. А.Б.Халидов, Ю.Н.Завадовский. //Танланган асарлар, II жилд. Тошкент: Фан, 1963. // Қайта нашр: М.: Ладомир, 1995.
3. Древние цивилизации. Под общей редакцией Г.М. Бонгард-Левина М.: Мысль, 1989. 480 с.
4. Лившиц В. А. Хорезмийский календарь и эры древнего Хорезма.— В кн.: Палестинский сборник. Л., 1970, вып. 21/84, с. 167.
5. Berdiev U.B. Natural sciences and a scientific look at the Universe // International journal of innovations in engineering research and technology [IJIERT]. 2021. V.8. P. 259-262.
6. U.B.Berdiyev, D.U.Xasanova, U.J.Kurbanmurodov, N.A.Chorshanbiyeva Tabiatshunoslik fanlari va olamning ilmiy manzarasi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. BuxDU, 2021 Maxsus son №2. 51-55 bet.